ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

Resume: This article uses examples to explain opinions about morphologically intermediate words, the relation of intermediate words to categories, the representation of these words in explanatory dictionaries, the features of intermediate words of the proper and possessive layers, including the interpretation of non-homonymous words within the etymological framework of two or three categories in explanatory and etymological dictionaries. An etymological analysis of morphological intermediate words by sources is presented, diachronic meanings are compared with their modern meanings and conclusions are drawn.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDAGI INSONNING FIZIK XUSUSIYATLARINI IFODALOVCHI FRAZEONIMLARNING SEMANTIK-STILISTIK TAHLILI

G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tilning frazeologik qatlami unda so‘zlashuvchi xalqlarning boy tarixi, milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi manba hisoblanadi. Frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berish, ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq o‘rganish maqsadida mazkur bobda frazeologik semantikaning frazeologik stilistika (frazeologik uslubiyat, frazeouslubiyat) bilan uzviy bog‘liqligini ochib berishni o‘z oldimizga maqsad qildik hamda ishimizning umumiy nazariy-fundamental asosi sifatida semantika stilistikaning, stilistika semantikaning ajralmas qismidir qabilidagi nazariy g‘oya tarafdorlari bo‘lgan I.V.Arnold[1], O.N.Seliverstova[2], I.A.Sternin[3], S.K.Bashieva[4] kabi tilshunoslarning chuqur ilmiy mushohadalariga asoslandik. Ushbu tilshunoslarning ta’kidlashicha, «frazeologik ma’no (frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug‘aviy mazmuni) ning konnotativ makrokomponenti so‘zlar kabi frazeologik birliklarning ham stilistik atributi bilan chambarchas bog‘liq, so‘z (agar u frazeologizm bo‘lsa, uning tarkibidagi affektiv mazmunga ega komponent) ning stilistik bo‘yoqdorligini konnotativning bir qismi deya qabul qilish o‘rinlidir»[5].

Frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berishda konnotativ ma’no nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlarning konnotativ ma’nosi ularning individual, lug‘aviy, grammatik, funksional hamda frazeologizmlarning boshqa so‘zlar bilan munosabatidan paydo bo‘ladigan ma’nolariga asoslangan bo‘lib, aynan frazeologizmlarda juda kuchli namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham bizningcha, ko‘pgina frazeologlarning frazeologizmlar semantik tuzilishidagi stilistik bo‘yoq ularni boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi muhim belgi sifatida e’tirof etishlari o‘rinli. Mazkur g‘oya tarafdorlaridan biri K.Bozorboyev ta’kidlaganidek, «Frazeologizmlarning konnotativ ma’nosida to‘rt xil ma’no nozikligini kuzatish mumkin:

1. Frazeologizmlarda emotsionallik mavjud bo‘lib, ular orqali ijobiy yoki salbiy emotsiyalar o‘zining ifodasini topadi;

2. Frazeologizmlar semantikasida ekspressivlik mavjud bo‘lib, ular orqali fikr tez, kuchli va obrazli ifodalanadi;

3. Frazeologizmlar semantikasida baho munosabat mavjud bo‘lib, ular orqali voqea-hodisa va jaray-

[1] Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – 4-е., изд., Издательство Вензи. 2010. – 382 с.
[2] **Селиверстова О.Н**. Труды по семантике. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 960 с.
[3] Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – Воронеж: Издательство Воронежского университета. 1985. – 130 с.
[4] Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. – 23 с.
[5] Ратушная Е.Р. Антропономинирующая парадигма русской фразеологии: семантика, формирование, функционирование: Автореф. дис… докт. филол. наук. – Курган, 2001. – С 19.

onlarga so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatlari ifoda etiladi;

4. Frazeologizmlar stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lib, ular ma’lum uslubda va ma’lum stilistik maqsadda ishlatiladi»[1].

Mazkur tadqiqotning obyekti bo‘lgan *frazeonimlar* frazeologizmlarning bir turi hisoblanadi. «Frazeonim» terminida ikki: «phrase» hamda «onym» leksemalari ishtirok etgan bo‘lib, bo‘lib, atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarga nisbatan qo‘llaniladi. Boshqacharoq qilib aytganda, frazeonimlar tarkibidagi komponentlardan biri atoqli ot bo‘lishi bilan umumiy frazeologizmlardan ajralib turadi. Frazeonim termini tilshunoslikda dastlab 2006-yilda Olga Pavlovna Aldinger tomonidan qo‘llanilgan. Olimaning «V.I.Dalning «Rus xalq maqollari» lug‘atida olamning frazeonomastik manzarasi» (Фразеономастическая картина мира в «Пословицах русского народа» В.И. Даля) mavzusidagi nomzodlik ishida frazeonim termini asoslab bergan. O.P.Aldinger «tarkibida onimlar ishtirok etgan frazeologizmlarni lo‘nda qilib frazeonimlar deb ataydi va ularni «dunyoning frazeonomastik tasvirining tarkibiy birligi» sifatida e’tirof etadi»[2]. Demak, «frazeonimlarni o‘rganuvchi frazeologiyaning yo‘nalishini frazeonomastika deb atash mumkin»[3].

Biz mazkur tadqiqotimizda o‘zbek tilining frazeologik fondiga mansub frazeonimlarning semantik-stilistik xususiyatlarini yuqorida qayd etilgan umumiy frazeologizmlarning semantik, konnotativlik hamda funksional uslubga xoslik imkoniyatlariga binoan tahlilga tortamiz.

Tadqiqotimiz uchun tahlil manbalarini o‘zbek tili frazeologik lug‘atlari hamda 10 ga yaqin xalq dostonlari tashkil etadi. O‘zbek tilining boy frazeologik fondidagi insonning fizik xususiyatlarini ifodalovchi frazeonimlarni o‘z navbatida:

a) insonning yoshi (*Xizr bilan barobar yashagan, Daqqiyunusni ko‘rgan*);

b) qaddi-qomati (*Rustam sifat she’rday, Samarqandning minoriday zinkiygan, Narimon ismli filkelbat*);

c) chiroyi (*Yusuf Misr ko‘chasida shaydo qilganday, Husniga Zuxro yulduz hayron*) ni xarakterlovchi atoqli ot komponentli frazeologizmlar kabi mayda guruhlarga ajratib tahlil qilish bunday til birliklarini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon berganligi bois ularni kichik tematik guruhlar asosida tahlilga tortishni joiz deb topdik.

O‘zbek tili folklori namunalarida *Fir’avn bilan o‘tirgan, Daqyunusni ko‘rgan (Daqqiyunusni ko‘rgan)* frazeonimlari ko‘zga tashlanib, ular qahramonning yosh jihatda nihoyatda uzoq umr ko‘rganligiga, keksaligiga ishora qiladi. Bunday frazeologizmlar ekspressivlikka boy bo‘lib, dostonlarda ma’no kuchaytirish, bo‘rttirish bilan bir qatorda o‘ziga xos obrazlilikni ham ifodalaydi:

«…*darvozabon uch yuz o‘ttizga kirgan edi. Fir’avn bilan o‘ltirgan bachchag‘ar edi*»[4]

«*Qo‘rboshi bobo uch yuz o‘ttizga kirgan edi. Daqqiyunusni ko‘rgan edi, necha safar shayton bilan bahslashganda firib bergan edi, qarilikni bo‘yniga olmay, doim bo‘zbola bo‘lib yurgan edi*»[5].

O‘zbek tilida yuqori emotsionallikka ega bo‘lgan ko‘plab frazeonimlarni uchratish mumkin. Bunday frazeologizmlarda so‘zlovchi yoki qahramonning obyektga nisbatan subyektiv munosabati o‘z in’ikosini topadi. Masalan:

«...*Xudo deyik, Yaratganga yig‘layik,*
Omin desa farishtayi maloyik,
Sarhovuzda yurgan g‘ozni urayik,
Bek otamga ov boshi qip borayik…»[6].

Misolda keltirilgan insonning fizik xususiyatini xarakterlovchi *Yaratgan (Egam)ga yig‘lamoq* frazeologizmi Alloh, Xudo, Tangri teokomponentli frazeologizmlarning dialektal ko‘rinishi bo‘lib, Tangriga o‘z dardini yormoq, kechinmayu hasratlarini Allohga to‘kib solmoq, nimanidir ixlos bilan so‘rab yolvormoq ma’nosida qo‘llaniladi. Bizningcha, ushbu frazeologizmni frazeonim sifatida qabul qilish lozim. Garchi «Yaratgan» leksemasi struktur jihatdan sifatdosh bo‘lsa-da, *Yaratganga yig‘lamoq* frazeologizmi tarkibida atoqli otga xos bo‘lgan nominativ, individuallik xususiyatlariga ega. Qolaversa, «Yaratgan» so‘zi o‘n sakkiz ming olam yaratuvchisi bo‘lgan Allohgagina ishora sifatida qo‘llanilib, alliteratsiya yordamida ifodalangan ushbu frazeonim kontekstda insonning his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lgan yuqori emotivlikni namoyon etadi.

Insonning fizik xususiyatlarini ochib beruvchi frazeonimlarda baholash konnotatsiyasi ham o‘z ahamiyatiga ega. Misol tariqasida *Xizr bilan olishgan*

[1] Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2001. – Б 86.

[2] Альдингер О.П. Фразеономастическая картина мира в “Пословицах русского народа” В.И. Даля: Автореф. дис… канд. филол. наук. – Смоленск, 2006. – С 8.

[3] G‘aybullayeva D.F. Ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli frazeologizmlarning semantik-stilistik va lingvostatistik xususiyatlari: Filol. fan. falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025. – B 23.

[4] Гўрўғли: Ўзбек халқ достонлари / Айтувчи Раҳматулла шоир Юсуф ўғли. – Тошкент: Шарқ. 2006. – Б 39.

[5] Кунтуғмиш. Равшан: Достонлар/Айтувчилар Эргаш Жуманбулбул ўғли; ёзиб олувчилар: Муҳаммадиса Эрназар ўғли; Ҳоди Зариф. – Тошкент: Шарқ. 2011. – Б 13.

[6] Ширин билан Шакар достони. Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Ғафур Ғулом. 1975. – Б 9.

teonim komponentli frazeologizmini Go‘ro‘g‘li silsilasiga kiruvchi ko‘plab dostonlarda uchratish mumkin:

«Lekin *Go‘ro‘g‘libekning ham shu vaqti kuchi, quvvati to‘lishgan, Xizr bilan olishgan, G‘irko‘ki nazarkarda tulpor bo‘lsa ham, arabning oti haddili tulpor, toza sinamali ot…»*[1].

Misolda keltirilgan *Xizr bilan olishgan* frazeonimi Go‘ro‘g‘lining jismonan baquvvat ekanligidan tashqari, uning qalban yetuk insonligiga ishora qilmoqda. Ma’lumki, Xizr alayhissalom obrazi insonning ezgulik yo‘lidagi maqsad va orzularining ijobatini keltiruvchi payg‘ambar sifatida talqin etiladi. Shunday ekan, mazkur frazeologizmning ijobiy baho nozikligiga ega ekanligini anglash qiyin emas.

Shuni alohida e’tirof etish o‘rinliki, o‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini xarakterlovchi frazeonimlarning aksariyat qismini ijobiy baho bo‘yog‘iga ega frazeologizmlar tashkil etishi aniqlanib, salbiy baho ottenkasiga ega frazeonimlar tahlillarimiz davomida deyarli kuzatilmadi.

O‘zbek tilida ham insonning fizik xususiyatlarini ifodalovchi frazeonimlarning asosiy qismi so‘zlashuv uslubiga xos. Tadqiqotimizda bunday qat’iy qarorni ifodalayotganimizga bir qancha omillar mavjud. Birinchidan, tahlillarimiz uchun asosiy manbalarimiz bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalarining asrlar osha og‘izdan-og‘izga ko‘chib, xalq orasida aytilinib, bizgacha yetib kelganligi o‘z-o‘zidan ularning hali kitobiy yoki neytral uslubga xos ekanligini tasdiqlashga to‘sqinlik qiladi. Ikkinchidan, dostonlarda qo‘llangan bu kabi frazeologizmlar uslubini aniqlashda ularning semantik, etimologik, miqdoriy hamda ohangdoshligiga e’tibor qaratish lozim. Folklor namunalarida qo‘llangan frazeonimlarning ko‘pchiligi yuqorida sanalgan mezonlarga javob bermasligi ularning hali kitobiy yoki neytral uslubga xoslangan deyishimizga qarshilik qiladi. Misol uchun, bugungi kunda arxaik frazeologizmlarga kiruvchi *Samarqandning minoriday zingkiygan* frazeonimi «Alpomish» dostonida Qorajonning qomati, jismoniy baquvvatligini ifodalash maqsadida qo‘llangan:

«*Samarqandning minoriday zingkiyib, buti selanglab, otning ostiga aymashib, o‘n uch mahramini birga olib, Qorajonning qalliqqa jo‘nab ketayotgan yeri:*

Qorajonbek yo‘lga kirdi,

Mahramlarin birga oldi,

Chilbir cho‘liga yurdi…»[2].

Mazkur topokomponentli komparativ frazeonim tarkibidagi arxaik so‘z hisoblangan «zingkiymoq» leksemasi «qaqqayib, qup-quruq, to‘ppa-to‘g‘ri» ma’nosini anglatadi[3]. Hozirda ayrim hududlarda bu so‘zning «biror joyga quruq qo‘l bilan kelish» ma’nosini anglatuvchi «zingraymoq, zengriymoq» kabi variantlari ham uchrasa-da, *Samarqandning minoriday zingkiymoq* frazeologizmni muloqotda deyarli kuzatilmaydi.

O‘zbek tilida bugungi kunda muloqotda uchramaydigan yana bir frazeonim *Tangri ko‘turdi* frazeologizmidir. «O‘zbek tili frazeologik lug‘ati» (O‘TFL)ga ko‘ra, mazkur onimik so‘z birikma «o‘lmoq» ma’nosini anglatadi»[4]. Ushbu frazeonim qadimgi turkiy tilda bitilgan asarlarda qo‘llangan bo‘lib, kitobiy uslubga xoslangan frazeologizmlar qatoriga kiradi. Misol uchun: S.Saroyining «Gulistoni bit-turkiy» asaridan olingan ushbu parchaga e’tibor qaratsak:

«*No‘shiravoni odilga bir kishi kelib, bashorat kelturdikim: «Falon dushmaningni Tangri ko‘turdi*». *No‘shirovon aytti: «Hech ani eshittingmikin, meni qo‘yg‘ay*»[5].

Bugungi kunda bu kabi frazeologizmlar arxaik frazeologizmlar hisoblanib, oddiy xalq uchun uni aniq kontekstsiz va sharhsiz tushunish mushkul.

So‘nggi paytlarda xalqimiz orasida metaforik ma’noga asoslangan *Farmon bibining o‘zi* (injiq va qattiqqo‘l qaynona), *Zulfiyaning turmagi* (doim yig‘ilib turadigan soch turmagi) kabi neofrazeonimlar ham tez-tez qo‘llanilib kelinmoqda. Garchi, komponent va etimologik mezonga ko‘ra bu kabi frazeologizmlar o‘zbek adabiyoti namunalariga borib taqalsa-da, ularni kitobiy uslubga xoslangan frazeologizmlar deb bo‘lmaydi. Chunki, bunday frazeologizmlar hali og‘zaki nutq birliklari bo‘lib, aniq manbalarga kiritilganicha yo‘q.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, onomastika va frazeologiya fanlarining uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan yo‘nalish - frazeonomastikada frazeonimlar rakurslararo tadqiq qilinadi. Atoqli ot komponentli frazeologizmlar shunchaki frazeologizmlar emas, frazeonomastik birliklar yoki frazeonimlar hisoblanadi. Bunday birliklar tarkibidagi onimlar madaniy koloritga ega bo‘lgan komponent bo‘lib, ular har bir tilda o‘ziga xos unikallikning takrorlanmas tashuvchisi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tilidagi frazeonimlarni semantik-stilistik jihatdan o‘rganish bunday til birliklarining ichki mazmuni, konnotatsiya elementlari hamda funksion-

[1] Гўрўғли: Ўзбек халқ достонлари / Айтувчи Раҳматулла шоир Юсуф ўғли. – Тошкент: Шарқ. 2006. – Б 67.

[2] Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Alpomish. O‘zbek xalq ijodi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016. – B 73.

[3] Мирзаев Т, Эшонқул Ж, Фидокор С. Алпомиш достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Элмус-Пресс медиа нашриёти. 2007. – Б 42.

[4] Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 2022. –B 481.

[5] Саройи С. Гулистони бит-туркий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. – Б 38.

al-stilistik o‘ziga xosliklarini kontekst yordamida izchil tahlil qilishni talab etadi. Tahlillarimiz natijasida insonning fizik xususiyatlarini ifodalovchi tematik turkum tahliliga ko‘ra, o‘zbek tilida, asosan, insonning chiroyi, yoshi va qaddi-qomatini ifodalab kelishi aniqlandi. Konnotatsiya elementlariga ko‘ra, insonning fizik xususiyatlarini ifodalovchi frazeonimlar aksariyat hollarda ijobiy baho ottenkasiga egaligi kuzatildi. Funksional-stilistik imkoniyatiga binoan mazkur tematik guruhga mansub frazeonimlar, asosan, so‘zlashuv, qisman kitobiy uslubga xosligi aniqlandi.

Resume. This article reveals Uzbek phraseological units with a proper name, and considers them as phraseonyms. In this reasearch semantic and stylistic features of Uzbek phraseonyms are analyzed on the basis of folklore materials and phraseographic sources. In order to achieve the main objectives of the research descriptive analysis, characterization, and componential analysis methods are effectively used. The results of the analysis aimed at identifying the semantic, stylistic, and functional markedness of phraseonyms demonstrate that phraseonyms constitute unique and distinctive units within the rich phraseological system of the Uzbek language.

Резюме. В статье рассматриваются фразеологические единицы узбекского языка с компонентом собственного имени, которые интерпретируются как фразеонимы. Семантико-стилистические особенности данных единиц анализируются на материале узбекского устного народного творчества и фразеографических источников. В процессе исследования для достижения поставленных целей применяются описательный, характеристический и компонентный методы анализа. Результаты проведённого анализа, направленного на выявление семантической, стилистической и функционально-стилевой маркированности фразеонимов, свидетельствуют о том, что фразеонимы являются самобытными и уникальными единицами, занимающими особое место в богатом фразеологическом фонде узбекского языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IKKI TILLI LUG‘ATLAR: NAZARIY ASOSLAR VA TARIXIY YONDASHUV

Nashirova Shaxnoza Buriyevna,
Qarshi davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti dekani
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ma’lumki, kommunikativ kompetentlik, til bilish darajasi barcha davrlarda o‘ta yuqori baholangan, zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi hisoblangan. Bu, o‘z-o‘zidan, eng qadimgi davrlardayoq til o‘rgatish vositalarini tuzish, ularning saviyasini oshirish masalasining dolzarb bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Dunyo lug‘atchiligi tarixining muayyan bosqichida muayyan til negizida ikki yoki ko‘p tilli lug‘atchilikning taraqqiy etishi ushbu davrda shu til egasi bo‘lgan millatning taraqqiy etgani, shu millat tilining mavqei oshganidan darak beradi. Ikki tilli leksikografiya silsilasida eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunga qadar muayyan tarixiy shart-sharoit – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy omillar taqozosi bilan turli tillar – shumer, lotin, anglosakson, fransuz, arab, ispan, ingliz, rus va boshqa tillar lug‘at tuzish uchun obyekt til maqomiga ega bo‘lgan.

Ikki tilli lug‘atlar o‘z davrida yo diniy, yoki mafkuraviy, yoki ta’limiy-o‘quv maqsadlarini amalga oshirishning strategik vositasi hisoblangan. Buni jahon leksikografiyasi, qolaversa, turkiy (jumladan, o‘zbek) leksikografiya fondiga oid ilk qo‘lyozma lug‘atlar, aniqrog‘i, ikki tilli lug‘atlarning shu davrning hukmdorlari, davlat boshliqlari, xalifalar, sarkardalarning